

“1-4-SINFLARDA KREATIVLIK YONDASHUVDA TABIIY FAN VA INFORMATIK SAVODXONLIGINING O’RNI”

Boybabayeva Muqaddas Yunusovna

Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani 30-maktab o’qituvchisi

Annatotsiya: Mazkur maqolada o’rta ta’lim davrining muhim bosqichi hisoblangan boshlang’ich ta’lim, ya’ni 1-sinfdan 4-sinfgacha bo’lgan muddatda bolalarga o’zgacha uslubda, ya’ni kreativlik bilan yondashgan holatda ularga tabiiy fanlarni o’qitish ko’nikmalari, uslublari haqida bahs yuritamiz. Bundan tashqari hozirgi kunda innovatsion texnologiyalar asri bo’lganligi uchun yosh bolalarda informatik savodxonlikni shakllantirish muhimdir. Bular haqida ham fikr yuritamiz. Ushbu maqola ustozlar, ota-onalarga yaxshi tavsiyalar bera oladi.

Kalit so’zlar: Kreativlik, ta’lim, metodika, tafakkur, belgi, mashq, fikrlash, ijodkorlik, fikrlash, erkinlik.

Abstract: In this article, we discuss the skills and methods of teaching natural sciences to children in a special way, i.e., with a creative approach to primary education, which is considered an important stage of secondary education, that is, from the 1st to the 4th grade. In addition, it is important to form information literacy in young children, as it is the age of innovative technologies. We will also think about these. This article can give good advice to teachers and parents.

Key words: Creativity, education, methodology, thinking, symbol, exercise, thinking, creativity, thinking, freedom.

Zamon ta’limi shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda yurtimizning chet el standartlari asosida o’qitish tizimi yo’lga qo’yishga qilayotgan harakatlari albatta, juda quvonarli. Avvalgi davr metodikasi hozirgi yoshlarimiz uchun judayam zerikarli, chunki ular o’sib kelayotgan avlod, buning ustiga axborotlashgan davrda yashashmoqda. Bunga prezidentimizning quyidagi fikrlarini namuna sifatida keltirishimiz mumkin: “*Maktabda*

o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi". Darhaqiqat, prezidentimizning ta'lim islohotiga bu qadar e'tibor berayotgani bejizga emas. Xoh u boshlang'ich ta'limmi, xoh oliy ta'limmi, o'quvchiga bilim beryaptimi, demak u o'zi uchun yangi metod, uslublarni yaratishga va harakatdan to'xtamaslikka majburdir. Biz mazkur maqolani 1-sinfdan 4-sinfgacha bo'lgan davr, ya'ni boshlang'ich ta'limga bag'ishlaymiz. Dastlab, kreativlik o'zi bu nima, degan savol tug'ilishi tabiiy. *Kreativlik* so'zini ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan. *Kreativlik* (lot. Creatio – yaratish, vujudga keltirish) – bu insonning noodatiy g'oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an'anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo'lgan qobiliyatidir. K. Rodjers (1944) kreativlik deb, muammolarni yangi yechimi va biror narsa, voqea, xolatni ifoda etishning yangi usullarini aniqlashni tushunadi. Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalar taqqoslangan tadqiqotlar katta ahamiyatga egadir. Intellektual xossalar bilan taqqoslash bo'yicha tadqiqotlar Dj. Gilford tomonidan amalga oshirilgan. *Kreativlik* – bu insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog'liq. Kreativlik bolalarda ham, kattalarda ham kuzatiladi. Chunki ijodkorlik va yaratuvchanlik insoniyat qonida bor. Bolalarda yoshligidan bu xususiyatni qanday shakllantirishimiz mumkin. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- Ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;
- Bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- Bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- Bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

- 1- O'zini tavakkaldan olib qochish;
- 2- Fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;
- 3- Shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;

- 4- Boshqalarga tobe bo'lish;
- 5- Har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish usullari va vositalariga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri o'qituvchi-o'quvchilar hamkorligi ekanligiga alohida e'tibor qaratildi. O'qituvchi qay darajada hammaga ma'lum bo'lib qolgan usullardan, an'analardan kechib, yangicha usul va metodlardan foydalansa, o'quvchi ham shuncha yarasha harakat qiladi. Bir xillik bolani zeriktiradi, natijada u darsga quloq solmay qo'yadi. Bu esa o'quvchilarda bilim saviyasining pasayib ketishiga sabab bo'ladi. O'qituvchi ularni darsga majburlab kirgizishi zarur emas, agar darsni shu qadar qiziqarli, ijodkorona tashkillashtirib qo'ygan bo'lsa. Mamlakatimiz taraqqiyotida texnologiya, xomashyo, jihozlar, energo resurslar, ekologik o'zgarishlar borgan sari globallashib, uning boshqaruvchisidan yuksak mahorat egasi bo'lishni talab etmoqda. Umuman, ta'lim tizimida ham uning dasturlari, mazmuni takomillashib bormoqda. Bunday tezkor o'zgarishlar bilim olishning zamonaviy texnologiyalari, masofaviy, loyihalangan ta'lim, media ta'limni, ya'ni shaxsiy ijodkorlikka asoslangan ta'limni joriy qilish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda. Maqolamiz mavzusiga qaytadigan bo'lsak, kreativlik yo'nalishida bolalarga tabiiy fanlarni o'rgatishga qaratilgan. Sababi hozirgi kunda bolalar uchun kimyo va biologiya fanlarini o'rinini bosish uchun, ya'ni boshlang'ich bilimlarni berish uchun 1-sinfdan 4-sinfgacha *Tabiatshunoslik fani* o'tiladi. Hozirgi kunda jamiyatimizga iqtidorli va bilimli mutaxassislar zarur. Shu boisdan ham, bola yoshligidan qaysi yo'nalishni tanlamadim, shu fanlar uchun zarur bilimlarni boshlang'ich ta'lim orqali olib boradi. Agar ta'lim jarayoni o'quvchilar faolligiga asoslangan muammoli, dasturlangan, loyihalar jadallashtirilgan vaziyatlar asnosida olib borilsa, u holda bu kreativ yo'nalishga ega bo'lib, o'quvchilarning faolligi tufayli u yangilik, ijodkorlik sari yetaklaydi vositalarga yoxud sabablarga aylanadi. O'quv jarayonini kreativ yo'naltirish uchun ba'zi tavsiyalar va qoidalar mavjud. Xususan ular quyidagilar:

- O'quv jarayoni mobaynida o'quv materialini berib borish, boshqa qiziqarli qo'shimcha materiallarni taklif etish va o'quvchilarni izlanishga, ijodkorlikka yo'naltiruvchi material asosida ularni o'z ehtiyoji, xohishi bilan yangilik sari yetaklash.

- O'quv jarayonini ham shunday tashkillashtirish zurrurki, o'quvchilar o'quv materiallarining yaratuvchisiga aylanib, berilgan o'quv materiali o'sha yaratuvchilikka xizmat qilsin.

- O'quv materillariga yangi qo'shimchalar kiritish orqali evristik strategiya, taktika, metod va usullar taklif etish orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashga bo'lgan qiziqishini oshirish lozim.

Biz kimyo yokida biologiya fanlarini o'rgatishimiz uchun 5-sinfni kutib o'tirishimiz shart emas. Boshlang'ich ta'limda *Tabiatshunoslik* degan fan kiritilgan, va bu fan mana shu ikkita fan uchun asos vazifasini o'taydi. Bolalar yoshligidan tabiatni muhofaza qilishga, uni asrab-avaylashga, u muqaddas ekanligiga o'rgatiladi. Ularni tabiat qo'yniga olib chiqish, jonzotlarga ozor bermaslikka o'rgatish, aslida boshlang'ich tushunchalardir. Oddiygina kuz faslida va bahor faslida barglar bilan applikasiya usuli orqali daftarlarga chiroyli qilib, har bir o'quvchi o'zining dididan kelib chiqib bularni yasashi ham o'quvchida ijodkorlik, nafosatni, ham unda shu fanga bo'lgan qiziqishni yanada ortishga sabab bo'ladi. U nimaga yashil barglar kuzda sarg'ayishini bilishni xohlaydi va o'qituvchidan so'raydi. Sirini bilgandan keyin deyarli hammaga aytib chiqadi. O'qituvchi faqat uning yoshiga mos qilib, qiziqarli va g'aroyib qilib chuntira olsa bo'lgani. O'quvchi yanada shu fanga qiziqib yangi tajribalar qilishni va hammani qoyil qoldiradigan bilimlarni o'rganishni boshlaydi. Yosh bola qachonki, tengdoshlari bilmagan, ota-onasini qoyil qoldiradigan bilimlarni egallasa, shunda shu fanga qiziqishi yanada ortadi. Masalan, o'quvchi agar kelajakda, o'zini taniy boshlagandan keyin, o'zi kasb tanlagandan keyin boshqa fanlarni *"Bu fan menga nimaga kerak?"* demasligi zarur. O'qituvchi har bir ma'lumotni kreativ yondashgan holatda beradigan bo'lsa, bolaga shu fan o'z mutaxassisligi uchun kerak bo'lmasayam, qiziqib o'rganadi. Masalan, oddiygina bolalarga yil fasllarini almashishini, inson umriga qiyoslab chuntiradigan bo'lsak, u shu fandan biror narsa oladi, unga kerak bo'lmasligi mumkin u

ma'lumot, lekin sizni uni hamma o'qituvchi kabi oddiy emas, ijodkorona chuntirib beradigan bo'lsangiz, o'quvchi shundan biror narsa yoxud biror hayotiy tajriba o'rganadi. Bu kabi tavsiyalar talaygina. Faqat o'qib-o'rganish va ularni o'quvchilarga har doimgidek emas, o'zgacha bir uslubda chiroyli chuntirish qolyapti, xolos. Hozirgi vaqtda kompyuter savodi, kompyuter texnologiyalarini bilish zamon talabidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Kelgusida kompyuterlashtirish va axborot kommunikatsion texnologiyalarini joriy etish» haqidagi qarorida shunday deyiladi: «Kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini xalq xo'jaligi, boshqaruv, fan taraqqiyoti, tadbirkorlik va ta'lim sohasida qo'llash eng muhim vazifalaridan biridir». Darhaqiqat, hozirgi kunda jamiyatni har bir sohasini rivojlanishida kompyuterning ahamiyati katta. Kompyuterlar korxonada, ofis, tashkilotlarda bo'lishi bilan birga, oilalarga ham kirib bormoqda. Albatta, kompyuter bolalarni ham befarq qoldirmaydi. Bolalar nafaqat maktab davridan, balki maktabgacha ta'lim davrida ham kompyuter savodxonligini o'rganib borishadi. “Bolalar bog'chasida boshlang'ich kompyuter savodxonligi” predmeti maktabgacha ta'lim muassasalarining bo'lajak tarbiyachilari uchun mo'ljallangan. Ularning maqsadi kompyuter o'yinlari, didaktik o'yinlar va hokazolar yordamida bolalarda kompyuterda ishlash ko'nikmalarini hosil qilish, oddiy mashg'ulotlar yordamida kompyuter va kompyuter texnologiyalari to'g'risida tushuncha berishdan iborat. Va bolalar bog'cha ta'limidan keyin maktab bosqichiga o'tishadi, bu davrda ham kompyuter savodxonligi to'xtab qolmaydi. Chunki bu zamon talabidir, boshqa fanlarda ham mavzuni chuntirish uchun, fanga doir ilova va o'yinlardan foydalanish mumkin, bu orqali ham bola zerikmaydi, ham ma'lumot yaxshi esida qoladi. Shuning uchun, o'qituvchilar kompyuter savodxonligini yaxshi bilsa, faniga doir dasturlarni qo'llay bilsa, ham o'z fanini, ham kompyuterdan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini berib ketadi. Boshlang'ich sinflarga dars o'tishda asosan o'yin usullaridan, interfaol metodlardan, modulli texnologiyalardan, noan'anaviy dars shakllaridan, fanlararo integratsiyadan foydalanish mumkin. Bu metodlarning hammasi ham bolalarda mustaqil ishlashni, o'z fikrini erkin bayon qila olishni, keng fikrlashni talab etadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ salohiyatini rivojlantirish uchun ayrim zarur bo'ladigan quyidagi omillarga e'tibor qaratishimiz zarur:

1. Yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
2. Ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;
3. O'qituvchi va hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.
4. Har bir mutaxassisning o'qituvchi sifatida o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini-o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq.

O'qituvchining kreativlik salohiyati uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ salohiyat negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi. Kreativ salohiyat bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, faqat bir xil uslub, bir xil metod o'quvchida fanga bo'lgan qiziqishni so'ndiradi. O'qituvchi o'sha fanga qobilyati bor o'quvchini ehtiyotsizligi, dangasaligi va bilimsizligi bilan yo'qotib qo'yishi mumkin. To'g'ri an'anaviy metodlardan ham foydalanish zarur, chunki ular sinalgan va natija beruvchi taktikalar. Lekin zamon, ilm-fan shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda biz "misi chiqqan" dars uslublaridan hamon "kecha olmayotganimiz" judayam achinarli.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Tolipov O' "Pedagogik texnologiya" -Toshkent.: Fan, 2005
- Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. :- Toshkent 2015
- Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua – Toshkent. 2016
- Aliyev A. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. -Toshkent: O'qituvchi, 1991
- Mavlonova R., Rahmonqulova N., Matnazarova K., Shirinov M., Hafizov S. "Umumiy pedagogika" Darslik. Toshkent, "Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi", 2020